

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

**SURXONDARYO VILOYATI JANUBIDA RAYXON O'SIMLIGINI  
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**A.N.Qurbanov<sup>1</sup>**

TerDMA universiteti assistenti,

**Akbarova Mavludaxon Lutfulla qizi<sup>2</sup>**

TerDMA universiteti talabasi,

**Abdixalilova Azizabonu Turfun qizi<sup>3</sup>**

TerDMA universiteti talabasi

**Annotatsiya; Rayxon o'simligi** - nafaqat xushbo'y ziravor, balki xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladigan qimmatli dorivor o'simlik bo'lishi bilan birga manzarali o'simlik hamdir. Rayxon (*Ocimum basilicum* L.) — labguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston iqlimida qadimdan yetishtirib kelinmoqda. U o'zining o'tkir xushbo'y hidi, shifobaxsh xususiyatlari va oziq-ovqat sanoatidagi o'rni bilan ajralib turadi.

**Kalit so'zlar;** Rayxon *Ocimum basilicum* L., oziq-ovqat, o'tkir xushbo'y hidi.

**Kirish;** Shuning uchun Termiz davlat muhandislik va agrotehnologiyalar universiteti rektori **R.N.To'rayev** rahbarligi ostida "O'simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik" kafedrasida professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan 2026 yil 15 mart kundan universitet hududidagi o'quv-tajriba issiqxonada xo'jaligi qurilib, unda 21000 tup rayxon va 24 000 tup madaniy gultojixo'roz guli o'simliklarining ko'chatlari yetishtirildi. Bu o'simliklarni yetishtirish jarayonlarini kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan ilmiy asoslangan holda olib borildi. Talabalarning tegishli bo'lgan amaliy mashg'ulotlarini ham issiqxonada olib borilmoqda, Yetishtirilgan rayxon va gultojixo'roz guli o'simliklarini Surhondaryo viloyati "Yo'l ko'kalamzorlashtirish" tashkilotiga xo'jalik shartnoma asosida yetkazib berilmoqda.

I. Yetishtirish texnologiyasi (Agrotexnikasi)

Rayxon issiqsevar, yorug'sevar va namlikka talabchan o'simlik hisoblanadi.

Rayxon unumdor, gumusga boy, yengil qumoq tuproqlarda yaxshi o'sadi. Sho'rlangan va botqoq yerlar unga mos kelmaydi. 2. Ekish muddatlari va usullari: Urug'idan ekish: Tuproq harorati 12-15°C ga yetganda (mart-aprel) issiqxonada may oylarida esa ochiq yerga ekiladi. Urug'lar 1-1,5 sm chuqurlikda, qator orasi 45-60 sm qilib ekiladi.

**Natija; Ko'chat qilib ekish,** Ertaroq hosil olish uchun mart oyida issiqxonalarda ko'chat tayyorlanadi va aprel oyida ochiq yerga ko'chirib ekiladi. Rayxon namlikni sevadi. Ayniqsa, o'suv davrida va hosilni kesib olgandan keyin tez-tez sug'orish talab etiladi. O'simlik 2-3 barg chiqarganda azotli o'g'itlar bilan, keyinchalik fosfor va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi. Qator oralarini yumshatish va begona o'tlardan tozalash rayxonning jadal o'sishini ta'minlaydi (1-2-rasmlar).



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026



1-rasm

2-rasm

Rayxon yoppasiga gullay boshlaganda tarkibidagi efir moyi eng yuqori nuqtaga yetadi. O‘simlik yerdan 10-12 sm balandlikda kesib olinadi. Bir mavsumda 2-3 marta hosil olish mumkin. Rayxonning shifobaxshligi uning tarkibidagi efir moylari (yevgenol, kamfora, linalool), vitaminlar (C, B2, PP, A) va mineral tuzlarga bog‘liq. Rayxon antiseptik va yallig‘lanishga qarshi o‘simlik hisoblanadi. Rayxon tarkibidagi moddalar bakteriyalarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Uning qaynatmasi bilan og‘iz bo‘shlig‘i chayqalsa, tish va milk yallig‘lanishi (stomatit, gingivit)da yordam beradi. Ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydi, rayhon ishtahani ochadi, oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi, ichakdagi gazlarni haydashga yordam beradi. U kuchli spazmolitik bo‘lib, oshqozon sanchiqlarini qoldiradi. Nafas yo‘llari kasalliklarini davolaydi. O‘simlikning damlamasi yo‘talni qoldiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida bronxit va nafas qisishi (astma)da qo‘llaniladi. Isitmani tushirish xususiyatiga ham ega. Rayhon choyi asablarni tinchlantiradi, bosh og‘rig‘ini qoldiradi, uyqusizlik va charchoqni bartaraf etadi. U xotirani mustahkamlashga ham yordam beradi. Tarkibidagi antioksidantlar tufayli organizmni erkin radikallardan himoya qiladi va immunitetni mustahkamlaydi. Rayxon yetishtirish katta xarajat talab qilmaydi, lekin uning inson salomatligi uchun foydasi beqiyos. Uni ham tomorqalarda, ham sanoat miqyosida yetishtirish dorivor xom-ashyo bazasini kengaytirish va xalq salomatligini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Rayxon o‘simligidan hududlarni ko‘kalamzorlashtirish, atmosfera havosini turli xil mikroblardan tozalash va landshaftshunoslikda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdinazarov J., “The effect of various composts on the amount of salts in the soil” Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. PP.13-16. 11.03.2024.
2. S.Boltayev, O.Boynazarov, F.Imamov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev, D.Artikova. [Tuproq unumdorligiga noan‘anaviy orgona-mineral kompostlarni qo‘llash samradorligi](#). Life sciences and agriculture. 2021 № 3 (7). 37-53 p.
- 3.S.M.Boltayev, N.Abdurahimov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g‘o‘zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo‘shimcha

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriyallari to'plami. T-2020. 105-107-bet.

4. Jamshid, A., & Otabek, K. (2024). THE EFFECT OF COMPOSTS ON THE YIELD OF FINE-FIBER COTTON. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(27), 239-242.

5. Jamshid, A., Saydullo, B., Otabek, P., Umida, M., & Uligberdi, K. (2022). TO STUDY THE EFFECT OF ADDITIONAL NUTRIENTS IN THE CARE OF FINE-FIBER COTTON IN THE CONDITIONS OF BARREN SOILS OF SURKHANDARYA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 156-158.

6. Boltaev, S. M., Abdinazarov, J., & Yusupov, A. (2022). SURXONDARYONING TAQIRSIMON TUPROQLARI SHAROITIDA INGICHKA TOLALI G 'O 'ZANI PARVARISHLASHDA QO 'SHIMCHA OZIQUALARNING TA'SIRI O 'RGANISH. *World scientific research journal*, 5(1), 50-54.

7. . Abdinazarov. (2024). THE EFFECT OF VARIOUS COMPOSTS ON THE AMOUNT OF SALTS IN THE SOIL. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 3(3), 13–16. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/4075>

8. Абдиназаров, Ж., & Болтаев, С. (2023). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. *AGROINNOVATSIYA*, 1(1), 118-121.

9. Болтаев, С., Абдиназаров, Ж., & Ибрагимов, Х. (2023). СУРХОНДАРЁНИНГ ТАҚИР ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. *Научный Фокус*, 1(5), 193-196.

10. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024). THE EFFECT OF APPLYING VARIOUS RATES OF COMPOST ON THE AMOUNT OF HARMFUL SALTS IN MODERATELY SALINE MEADOW-TAKIR SOILS. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(35), 277-281.

11. Абдиназаров, Ж., Паянов, О., & Каримова, К. (2024). ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ТУРЛИ КОМПОСТЛАР, ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(35), 320-325.

12. РЎЗИЕВА, И., АБДИНАЗАРОВ, Ж., & РЎЗИМУРОДОВ, Д. ASSESSMENT OF THE QUALITY OF IRRIGATED GRASSLAND SOILS. *UNIVERSITETI XABARLARI*, 2020,[3/1] ISSN 2181-7324.

13. Болтаев, И. Б., Аскарлова, З. Ш., & Абдиназаров, Ж. А. (2015). СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЧЕСКОГО УГЛЕРОДА И ВАЛОВОГО АЗОТА В ПОЧВЕ ПРИ ВНЕСЕНИИ НАВОЗА РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ РАЗЛОЖЕНИЯ. In *Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях* (pp. 146-147).



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

14. Boltayev, S. M., Abdurahimov, N., Abdinazarov, J., & Turdiyev, B. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. *Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami*.

15. Jamshid, A., & Otabek, X. (2024). BENTONITLI VA FOSFORITLI KOMPOSTLARNING TUPROQDAGI ZARARLI TUZLAR MIQDORIGA TA'SIRI. *Научный Фокус*, 2(20), 1-3.

16. Абдиназаров, Ж., & Курбанов, А. (2024, December). ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ГЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 29, pp. 80-83).

17. Jamshid, A., & Otabek, K. UOT 631.67: 631.4 DISTRIBUTION AND APPLICATION OF BIOGUM IN AGRICULTURE.

18. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024, December). QO 'SHIMCHA OZIQUALARNING INGICHKA TOLALI G 'O 'ZANI O 'SISH VA RIVOJLANISHDA TA'SIRI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 29, pp. 106-110).

19. Jamshid, A., & Asror, K. (2024). THE COMPOSITION OF VARIOUS COMPOSTS BASED ON BENTONITE, PHOSPHORITE, AND MANURE USED IN THE EXPERIMENT. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 4(40), 95-99.

20. Болтаев, С., Бойназаров, О., Имамов, Ф., Абдиназаров, Ж., Артиқова, Д., & Турдимов, Б. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОРГАНО-МИНЕРАЛЬНЫХ КОМПОСТОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВЫ. *Life Sciences and Agriculture*, (3-4 (7-8)), 46-61.

21. Абдиназаров, Ж., Мурадова, Ш., & Бегалиева, Н. (2025). ТУПРОҚГА ТУРЛИ КОМПОСТ ҚЎЛЛАНИЛГАНДА ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИК ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(29), 114-120.

